

"Temir daftar"ga kiritilgan oilalar farzandlari bilan muloqot

Ta'lif muassasasida tahsil olayotgan talabalarining o'qish va yashash sharoitlari bilan bog'liq muammolarning yechimi borasida qayg'urish hamda chora-tadbirlar qabul qilish mussasa rahbarlarining doimiy diqqat markazida. Bu ta'lif va tarbiyaning sifatiga ham bevosita daxldordir.



Institutimiz rektorining tashabbusi bilan "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning fazandlari - talabalarimizning arzi dodlarini eshitish va ularga imkon darajada yordam ko'rsatishga qaratilgan tadbir tashkil etildi. Tadbirni yoshlar bilan ishlash bo'yicha institut prorektori R.Choriyev olib bordi. Fakultet dekanlari va muovinlari hamda yordamga muhtoj bo'lgan talabalar ishtirokida o'tkazilgan tadbirda talabalarining har biri bilan alohida gaplashilib, ularning yashash sharoiti atroficha o'rganildi.



Talabalarining aksariyati kontrakt to'lov pulini to'lashga imkon yetmayotgani, shu borada yordam qilishni o'tinib so'rashdi. Ularning aksariyatiga yordam qilinishi ta'kidlandi va ijarada turganlarga shu kunning o'zidayoq yotoqxonadan joy ajratildi. Prorektor talabalarga maslahatlar berish asnosida "Sizlar kelajakda ota-onalariningizga tayanch bo'lib ularni boqishingiz, g'amxo'rlik qilishingiz kerak. Ko'pchililingiz ishga joylashib ishlayotganingiz va chet tillarni o'rganish uchun o'quv kurslarida o'qishga intilayotganingiz, bizni juda xursand qilayapti", - deb ta'kidlab o'tdi.



Tadbir davomida institut Xotin-qizlar kengashi raisi, Zuhra Ismoilova, "SSTE va B" fakulteti dekani Rashid Hakimov, Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Farrux Irisov, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Zuhriddin Haydarovlar mavzu yuzasidan o'z mulohazalarini bildirib o'tdilar.

TIQXMMI matbuot xizmati